



Some features of the development of trade in handicrafts in Turkestan (using the example of the Zarafshan oasis at the end XIX – early XX centuries)

Oybek OSTONOV¹

Tashkent State Agrarian University

ARTICLE INFO

Article history:

Received February 2024

Received in revised form

15 February 2024

Accepted 15 March 2024

Available online

25 May 2024

Keywords:

Turkestan,
Zarafshan oasis,
trade,
tea trade,
merchant,
entrepreneurship,
artisan.

ABSTRACT

This article examines the features of the development of internal and foreign trade relations of the Zarafshan oasis at the end of the XIX – beginning of the XX centuries. Particular attention is paid to the history of trade in the Zarafshan oasis and the role of trade activities in the socio-economic life of this region. Changes in trade over the specified period are analyzed, and specific and general aspects of these changes are identified. The positive and negative aspects of transformations in the trade of the territories of the Turkestan General Government are also studied, starting from the second half of the 19th century, when, after the invasion of the Russian Empire, the oasis was administratively divided into two parts, and the impact of this process on the trading areas is considered.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss2-pp94-104>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Turkistonda hunarmandchilik mahsulotlari savdoci rivojlanishining ba'zi xususiyatlari (XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Zarafshon vohasi misolida)

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Turkiston,
Zarafshon vohasi,
savdo-sotiq,
choy savdosi,
savdogar,
tadbirkorlik,
hunarmand.

Mazkur maqolada Turkistonda ichki va tashqi savdo aloqalar rivojlanishining ba'zi xususiyatlari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Zarafshon vohasi misolidagi tarixiga bag'ishlanib, unda Zarafshon vohasida savdo ishlari tarixi, ichki va tashqi savdo faoliyatlarining vohaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'rniga e'tibor beriladi. Bu davrda savdo-sotiqning holati, savdodagi o'zgarishlar tahlil etilib, savdoning o'ziga xos va

¹ Doctor of Historical Sciences, Associate Professor, Tashkent State Agrarian University.

umumiy jihatlarini, xususiyatlarini aniqlanadi. Vohaning XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya imperiyasi bosqini sababli ma'muriy jihatdan ikki qismga bo'linishi va bu jarayonning savdo-sotiq sohasiga ta'siri ko'rsatilib Turkiston general-gubernatorligi tarkibidagi hududlarida savdo-sotiq sohasida yuz bergan o'zgarishlarning ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilindi.

Некоторые особенности развития торговли ремесленными изделиями в Туркестане (на примере Зарафшанского оазиса в конце XIX – начале XX вв.)

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

Туркестан,
Зарафшанский оазис,
торговля,
торговля чаем,
купец,
предпринимательство,
ремесленник.

В данной статье рассматриваются особенности развития внутренних и внешнеторговых связей оазиса Зарафшан в конце XIX – начале XX веков. Особое внимание уделяется истории торговли в оазисе Зарафшан и роли торговой деятельности в социально-экономической жизни этого региона. Анализируются изменения в торговле за указанный период, выявляются специфические и общие аспекты этих изменений. Также изучаются положительные и отрицательные стороны трансформаций в торговле территорий Туркестанского генерал-губернаторства, начиная со второй половины XIX века, когда после вторжения Российской империи оазис был административно разделен на две части, и рассматривается влияние этого процесса на торговые районы.

1. Dolzarblici: Turkistonda ichki va tashqi savdo aloqalar XIX asrning so'nggi choragi-XX asr boshlarida Zarafshon vohasida kechgan savdo-sotiq jarayonlarini ilmiy tahlil etish, vohaning Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylantirilgan hududlarida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy hayotini xolisona yoritish ko'zda tutilgan. Ushbu mavzuning dolzarbligini eng avvalo, uning hanuzgacha maxsus tadqiqot obyekti sifatida chuqur o'rganilmaganligi bilan belgilanadi. Vaholanki, Zarafshon vohasi savdo-sotiq keng tarqalgan hududlardan biri sifatida iqtisodiy jihatdan alohida o'ringa ega. Vohaning Rossiya imperiyasi tarkibida bo'lgan qismida ham jiddiy siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar yuz berib, savdo-sotiq jarayonlarini tegishli manbalar, arxiv hujjatlari va adabiyotlar orqali yangicha ruhda talqin etish, ichki va tashqi savdo aloqalarida yuz bergan o'zgarishlarni tahlil etish ko'zda tutilgan. Ular mavzuning dolzarbligini ko'rsatuvchi asosiy omillardir. Ma'lumki, XIX asrning so'nggi choragi-XX asr boshlarida Zarafshon vohasi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini boshdan kechirdi. Vohaning bir qismi Buxoro amirligi tarasarrufida qolgan bo'lsa, ikkinchi qismi Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati asoratiga duchor bo'ldi. Maqolada vohaning savdo-sotiq faoliyatini o'rganish, ularning ijobiy va salbiy jihatlarni taqqoslash asosida zarur xulosalar chiqarish ko'zda tutilgan.

Mustaqillik yillarida hunarmandchilik, tadbirkorlik va savdo-sotiqqa keng e'tibor berilishi hozirgi bozor munosabatlariga o'tish davrida ham ushbu sohalar respublika

ijtimoiy-iqtisodiy hayotida o'z mavqei va ahamiyatini yo'qotmaganligini ko'rsatmoqda. Tarixdan ma'lumki, hamma davrlarda ham ichki va tashqi savdo-sotiq tijoratining tarkibiy qismi sanalgan. Bugungi kunda ham respublika hukumati tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar avvalo, tadbirkorlik va savdo-sotiqni taraqqiy ettirishni ko'zda tutadi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, o'tmishda bu borada erishilgan yutuqlar va yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni ilmiy o'rganish, tahlil qilish mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

2. Metodlar, mavzuga oid adabiyotlar va manbalarning tahlili. Maqolada ilmiy abstraksiya, tahlil va ekspert baholash usullaridan foydalanilgan. Markaziy Osiyo tarixshunosligida XIX asr oxiri-XX asr boshlarida sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni o'rganish borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Bu borada olib borilgan tadqiqotlar va izlanishlarning ilmiy ko'lami kengligi, xolisonaligi bilan ajralib turadi. Lekin Turkistonda ichki va tashqi savdo aloqalar rivojlanishining XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Zarafshon vohasi misolidagi tarixi mavzusi tadqiqot obyekti sifatida kam o'rganilgan. Ushbu muammoning ayrim tomonlari va qirralari boshqa masalalar bilan umumiy bog'liq holda ko'rib chiqilgan xolos. O'rganilayotgan mavzuning ayrim jihatlarini qator adabiyotlarda u yoki bu darajada o'z aksini topgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Zarafshon vohasining ichki va tashqi savdo aloqalar rivojlanishining tarixi mavzusiga oid ilmiy adabiyotlar va maqolalarning tahlili, o'rganilish darajasi hamda yondashuv uslubiga qarab, bo'lib tahlil qilindi. Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasiga bostirib kirishi arafasida va hukmronligi davrida chop etilgan adabiyotlarda ta'kidlash joizki, Turkistonni Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi arafasida rus sayyohlari, savdogarlar va tadqiqotchilar o'lkaga kelishib, o'rganilayotgan mavzuga oid ma'lumotlar qoldirishgan [1]. Bu asarlarda Zarafshon vohasining savdo aloqalari haqidagi tasavvurlarimizni boyitadigan ko'plab fikr-mulohazalar ham uchraydi. Turkiston Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olingandan keyin o'lkaga kelgan mualliflarning asarlarida tadbirkorlik va savdo-sotiq ishlari atroflicha yoritilgan. Bunday mualliflar qatoriga P. Pashino, L.F. Kostenko, N.F. Petrovskiy L.N. Sobolev, V.V. Radlov, M.M. Virskiy, A. Gubarevich-Radobilskiy, I.I. Geyer, D. Logofet, S. Konopka, V.I. Masalskiy, A.I. Chicherov, Maykl Oldos, Ranin Kazemi, Sofi Ibbotson va boshqalarning asarlarida o'z ifodasini topgan [2].

Ushbu mualliflarning asarlarining ahamiyati haqida gapirganda, ular o'sha davr hayotini o'z ko'zlari bilan ko'rishib, zarur xulosalar ham chiqarishganini alohida ta'kidlash kerak. Mazkur asarlarda Rossiya imperiyasining Turkistonga bostirib kirishi, xususan Zarafshon vohasida ichki va tashqi savdo ishlariga doir qiziqarli ma'lumotlar bilan bir qatorda, chalkash fikrlar va g'aliz xulosalar ham uchraydi.

Sovet hukmronligi davrida chop etilgan asarlarda ham mavzuga oid bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Shuni ham ta'kidlash joizki, ushbu mualliflarning asarlarida kommunistik mafkura manfaatlari, sinfiylik nuqtai-nazaridan bir tomonlama yondashuv ko'zga tashlanadi. Bu hol sovet davrida yozilgan adabiyotlarga masalani izchil va haqqoniy tahlil qilishga imkon bermagan. Bunday adabiyotlar qatoriga I.A. Remez, I. Spasskiy, O.A. Suxareva, A.M. Aminov, Ye.V. Bunakov, R.Ya. Rassudova [3] tadqiqotlarini kiritish mumkin.

Maqolani mazmunini ilmiy jihatdan ochib berishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivida saqlanayotgan qator jamg'armalar o'rganilib, tahlil qilindi. Xususan O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxivining Turkiston general-

gubernatorligi mahkamasi (F.I-1), Zarafshon okrugi boshlig'i mahkamasi (F.I-5) kabi fond[4.]lardagi materiallar muhim manbaviy asos bo'lib xizmat qildi. Yuqorida ko'rsatilgan arxivlarda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Zarafshon vohasining ichki va tashqi savdo tarixi bilan bog'liq rasmiy hujjatlar, hisobot va buyruqlar, hukumat qarorlari, xat va bildirishlar saqlangan bo'lib, ularning ko'pchiligi ilk bor ilmiy muomalaga kiritildi. Bundan tashqari maqolani manbaviy asosini boyitishda 1889–1912-yillarga ta'luqli 23 to'plamni tashkil qilgan “Samarqand viloyati obzorlari” [5], “Samarqand viloyati ma'lumotnomasi”[6.] kabi manbalar ham tahlil qilinib, ilmiy iste'molga kiritildi.

3. Tadqiqot natijalari. Buxoro Eron, Muskoviya, Sibir, Xitoy va Hindistonga sayohat qilgan mintaqa savdogarlari ishtirok etgan transmintaqaviy Osiyo savdosining tarixiy joyi bo'lgan [7]. 1868-yil 23-iyunda Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi hukumatlari o'rtasidagi tuzilgan shartnoma asosida Zarafshon vohasi ikki qismga bo'lindi. Shu tariqa Buxoro amirligi o'zining Zarafshon vohasidagi ulkan iqtisodiy-siyosiy mavqega ega bo'lgan katta qismidan ajralishga majbur bo'ldi. Ko'p o'tmay, Buxoro amirigidan ajratib olingan hududda Zarafshon okrugi tashkil qilindi [7.7]. “Zarafshon okrugini boshqarishning vaqtinchalik qoidalari” ishlab chiqilib, Turkiston general-gubernatori tomonidan tasdiqlandi.

Bu qoidalarga ko'ra, Zarafshon okrugi ma'muriy jihatdan Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlariga bo'lindi. Biroq Rossiya hukumati tomonidan 1886-yil 12-iyunda tasdiqlangan “Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi Nizom”ga binoan Zarafshon okrugi tugatilib, Samarqand viloyati tashkil etildi. O'z navbatida, Samarqand viloyati Xo'jand, Jizzax, Kattaqo'rg'on va Samarqand kabi uyezdlarga ajratildi [8.6].

XIX asr o'rtalarida Samarqand bozorlarida ham xuddi Buxoro va Qarshi bozorlaridagi singari savdo mollarining narxi muomaladagi tanga qiymati bilan belgilangan [9.109]. Samarqand bozori vohadagi eng yirik oldi-sotdi markazi hisoblangan bo'lsa [10.124] , paxta savdosi bo'yicha Kattaqo'rg'on bozoriga teng keladigani yo'q edi. 1868-yilda bu yerda 12595 botmon paxta sotilganligi ham fikrimizni isbotlaydi. Bu davrda Samarqandda yirik savdo do'konlari paydo bo'lib, shaharda jami 2414 ta savdo do'koni mavjud edi. Do'konlarda ulgurji va chakan savdolar amalga oshirilgan. Bundan tashqari, Samarqanddagi 50 dan ortiq do'konlarda Rossiyadan keltirilgan mahsulotlar bilan savdo qilingan, 394 ta do'kon esa mavsumiy tarzda faoliyat yuritgan [11.124].

1868-yilda Samarqandda 35 ta karvonsaroy mavjud edi. Ulardan 9 tasi hind savdogarlariga tegishli bo'lgan [12.390]. Xususan, yirik tadbirkor Mulla Orifboyga tegishli “Jun saroy” karvonsaroyi asosan jun savdosiga ixtisoslashgan. Karvonsaroydagi mavjud 15 ta do'konning har biriga 8 botmongacha jun joylashtirilgan [13.107]. “Go'ri Amir” masjidiga tegishli vaqf yerlarda joylashgan 50 ta do'konda esa jundan to'qilgan mahsulotlar, gilamlar bilan savdo qilingan. Karvonsaroylarda jami 712 ta savdo do'konlari faoliyat olib borgan [13.114].

Samarqand bozorlarida voha hunarmandlari tayyorlagan mahsulotlar savdosi ham qizg'in kechgan. Samarqandlik tijoratchilar qo'shni hududlar va xorijiy mamlakatlar bilan ham faol savdo aloqalarini yaxshi yo'lga qo'yishgan. Masalan, turli ranglardagi movut xalatlar Afg'oniston, Eron va Kashmirdan keltirilgan bo'lsa, hind sholcha va gilamlari asosan Qarshi va Buxorodan, qisman Hindistonning o'zidan olib kelingan [13.115]. XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran Samarqandning Rossiya bilan savdo aloqalari kengaygan. “Golos” gazetasining yozishicha: “Har yili Samarqandga Yekaterinburg,

Troitsk, Petropavlovsk, Oqmulla, Turkiston va Toshkent orqali 7500 tuya va 3000 dan ziyod aravada 150000 pud mahsulot keltirilgan” [14.111].

Keyingi davrlarda ham Zarafshon vohasida savdo-sotiq ichki va tashqi savdo ikki yoʻnalishda rivojlanib bordi. Vohadagi ichki savdo asosan bozor savdo-sotigʻidan iborat edi. Bu ish bilan muayyan sarmoyaga ega boʻlgan shaxslar shugʻullangan [15.5]. 1872-yilga kelib, Zarafshon okrugi boʻyicha 33 ta muntazam ishlovchi bozor va muntazam savdo bilan shugʻullanuvchi 3166 nafar savdogar faoliyat koʻrsatgan. Bundan tashqari, 9500 kishi bozorlarda vaqtinchalik savdo bilan shugʻullanishgan [16.26]. Yirik savdogar boylar asosan shahar karvonsaroylarda faoliyat olib borishgan. Samarqand markaziy bozorida Zarafshon okrugi hududidagi boshqa bozorlardagi mahsulotlarga narx belgilangan [16.30].

Savdo-sotiqning taraqqiy etishi bilan savdogarlar oʻrtasida ham tabaqalanish boshlanib, ular orasida yirik sarmoyaga ega boʻlgan shaxslar ajralib turgan. S.P. Mansirev hisobi boʻyicha Samarqand uyezdida bunday savdogarlar 1896 yilda 183 nafarni, 1897-yilda 93 nafarni va 1898-yilda esa 232 nafarni tashkil qilgan. Ularning beshdan bir qismi esa molni bozorlardagi mahalliy ulgurji savdogarlardan Samarqand shahridagiga nisbatan 10-15 foiz kam chegirmaga asoslangan kreditga olishgan. Kredit hajmi oylik aylanma jamgʻarmaning 1-2,5 foiziga teng boʻlgan. Undan keladigan foyda esa 2-2,5 ming rublni yoki tadbirkorning yillik oʻrtacha daromadining 12-25 foizini tashkil qilgan [17.125-126].

Bu davrda attorlar bozor savdosida oʻziga xos mavqega ega edilar. Samarqand uyezdida 1897-yilda 193 nafar, 1898-yilda 205 nafar attorlar faoliyat koʻrsatishgan. Ularning oʻrtacha savdo mablagʻi 600-900 rubldan iborat boʻlib, har biri yillik aylanma mablagʻining 20-25 foizi miqdorida foyda olishgan [17.127-128]. Boshqa bir toifadagi savdogarlar chakana tijorat bilan shugʻullanishgan. Asosan mahalliy gazlamalarni sotish bilan shugʻullangan bunday savdogarlar yiliga oʻrtacha 400-500 rubl mablagʻ topishgan boʻlsa, uning 15 foizini sof foyda tashkil qilgan. 1897-yilda bunday savdogarlar soni 132 nafar boʻlgan boʻlsa, 1898-yilda 148 nafarga yetgan [17.125-126].

Asosan gavjum chorrahalarida, yoʻl boʻylarida faoliyat koʻrsatgan baqqollik doʻkonlarida quruq mevalar, qishloq xoʻjaligi va un mahsulotlari savdosi qilingan. 1897-yilda Samarqand uyezdi boʻyicha 104 nafar, 1898-yilda 92 nafar baqqollar faoliyat koʻrsatgan. Ularning har biri 600-700 rubllik jamgʻarmasidan 20 foizgacha foyda olishgan [18.15].

Mahsulot sotish hajmining koʻpayishi, savdoning jonlanishi oʻz navbatida tadbirkorlik va savdo bilan shugʻullanuvchilar sonining oshishiga olib keldi. Ushbu jarayon 1888-1898-yillar oraligʻida ayniqsa, yaqqol koʻzga tashlandi. Agar 1888-yilda Samarqand viloyati boʻyicha 8687 kishining savdo bilan shugʻullanish huquqini beruvchi hujjatga ega boʻlganligi ham fikrimiz dalilidir. Bunday savdogarlarning 103 nafariga I va II darajali, 56 nafariga esa koʻchma savdo qilish uchun ruxsat berilgan. 1898-yilda esa 18357 kishiga savdo bilan shugʻullanish uchun hujjat berilgan. Ularning 450 nafari I va II darajali savdogarlar, 143 nafari esa ichki koʻchma savdo bilan shugʻullanuvchilar, qolganlari esa mayda savdo-sotiq bilan shugʻullanuvchilardan iborat edi [18.15].

Yuqoridagi maʼlumotlar shuni koʻrsatadiki, bu davrda ichki savdoda yuz bergan taraqqiyot sababli mayda savdo-sotiq bilan band boʻlgan kishilar soni muttasil oʻsib borgan. Yaʼni kamtarona mablagʻga ega boʻlgan kishilar ham erkin tadbirkorlik bilan shugʻullana boshlaganlar. Quyi Zarafshon vohasida esa bunday jarayonni kuzatish qiyin

edi. Mustamlakachilik zulmi ostida bo'lishiga qaramasdan, vohaning ushbu qismi aholisi hayotiga bozor munosabatlari tobora chuqurroq kirib kela boshladi.

Samarqand uyezdida savdo aylanmasi nisbatan yaxshi taraqqiy etdi. Jumladan, 1888-yilda uyezd bo'yicha savdo uchun 4206 ta hujjat berilgan bo'lsa (viloyat bo'yicha uyezdning ulushi 47,2 foizni tashkil qilgan), oradan 10 yil o'tgach, ya'ni 1898-yilda tadbirkor savdogarlarga 6918 ta (viloyat bo'yicha uyezdning ulushi 51,8 foiz) ana shunday hujjat berilgan [18.15].

Bu davrda chetdan keltirilgan manufaktura mahsulotlari mahalliy bozorlardagi umumiy savdo aylanmasining 64,5 foizni tashkil etgan. Bir so'z bilan aytganda, 1897-yilda Samarqand shahridagi 15699750 rubllik umumiy savdo aylanmasining 1412035 rublini sof foyda tashkil etgan [19.30].

Samarqand uyezdida Urgutdan so'ng Dahbet bozori o'zining savdo nuqtalari va karvonsaroylari bilan mashhur bo'lgan. Dahbetdagi bitta bozorning umumiy savdo aylanmasi 1 mln rublni tashkil etgan [20.138]. Bu yerda haftaning chorshanba (Oqtepa bozori) va shanba (Jom bozori) kunlari bozor bo'lgan. O'sha kunlari turli xil mollar yuklangan mingga yaqin aravalar, 3 mingdan 5 mingga otlar bozorga kelgan. Bundan tashqari, uzoq-yaqindagi shahar va qishloqlardan o'rtacha ming boshdan tuya va qora mol, qariyb to'rt ming bosh mayda mollar sotish uchun ana shu bozorlarga keltirilgan [20.140].

Jomboy bozori asosan dehqonchilik bilan shug'ullanuvchilar uchun aholiga xizmat qilib, u Dahbetdagi Chuqur bozor (Samarqand hududida), Saricha, Boyg'atepa, Juma, Chuyantepa va Oqtepa bozorlari bilan doimiy aloqada bo'lgan. Bu hududdagi umumiy savdo aylanmasi 2,5 mln rublni tashkil etib, shundan 900 ming rubli Jonboy bozori, 1,5 mln rubli Oqtepa bozoriga to'g'ri kelgan [20.141].

Samarqand uyezdidagi qishloq bozorlari hissasi vohadagi umumiy savdo aylanmasining 21,3 foizni tashkil qilgan [20.141]. Vohadagi yirik savdo markazi bo'lmish Samarqand shahrida xorijiy va mahalliy mahsulotlar savdosi keng yo'lga qo'yilgan. Shaharda karvonsaroylar sonining ortishi, savdo uylari, hunarmandchilik korxonalari va zavod-fabrikalarning vujudga kelishi savdo-sotiq va tadbirkorlikning yanada jonlanishiga xizmat qildi.

Samarqand uyezdidagi umumiy savdo aylanmasida oziq-ovqat mahsulotlari savdosi yetakchi o'rinda turgani. 1897-yilda oziq-ovqat mahsulotlari savdosining umumiy hajmi 1247700 rublga yetgan. Ikkinchi o'rinda turuvchi zavodlar va tegirmon mahsulotlarining umumiy savdo aylanmasi 511000 rublga to'g'ri kelgan [19.31-36]. Bu borada uchinchi pog'onani zabt etgan manufaktura mahsulotlari yalpi savdosi 470800 rublni tashkil etgan. Mayda savdo-sotiq hajmi 603600 rubldan iborat bo'lgan. Uezd bo'yicha savdo-sanoat ishlab chiqarish hajmi 2833100 rubldan iborat bo'lgan. 1897-yilda bu yerdagi umumiy savdo aylanmasi 18.532.850 rublga yetib, shundan sof foyda 1.754.790 rublni tashkil qilardi [19.36].

Zarafshon vohasining mustamlaka qismida quyi Zarafshon qismiga nisbatan savdo va tadbirkorlikning rivojlanishiga savdodan olinadigan zakot solig'ining bekor qilinishi, Rossiya imperiyasida 1875-yil 1-yanvarda qabul qilingan "Hunarmandchilik va savdodan olinadigan to'lovlar" to'g'risidagi qonuniga asosan hujjatsiz savdo do'konlari yopilishi ham sabab bo'lgan [21.38]. Voha iqtisodiy hayotida yangilik bo'lgan ushbu tartib-qoidalar ichki va tashqi savdo hamda tadbirkorlikka o'z ta'sirini o'tkazdi. Bu holni o'sha davrdagi chor ma'murlari bildirgan fikr-mulohazalardan ham bilsa bo'ladi. Jumladan, Turkiston

general-gubernatorligining 1874-yil 19-oktyabrdagi bayonnomasida mahalliy zavod-fabrikalar mahsulotlari yerli aholi ehtiyojlarini qondira olishi tan olinadi. O'z navbatida, savdo-sotiq bilan shug'ullanuvchi aholiga imtiyozlar berib, ularni soliqlardan ozod qilish masalasiga alohida urg'u beriladi [22.12]. Albatta, Rossiya hukumati soliqlardan keladigan mumaygina foydani yo'qotishni istamasdi. Shuning uchun ham Turkiston general-gubernatori fon Kaufman bu masalaga jiddiy e'tiroz bilan qaragan.

G.A. Arandarenko ma'lumotiga ko'ra, 1875-yilda Samarqand uyezdiga qarashli Urgut tumanida 22 nafar boy savdogarlar istiqomat qilishgan bo'lsa, 1890-yillarning oxirlariga kelib ularning soni 12 nafarga tushib qoladi. Shu bilan birga, bozorlarda faoliyat ko'rsatuvchi savdogarlar soni ham 50 foizga kamaygan. Ammo o'sha 12 nafar savdogarning bozorlardagi ulgurji savdo aylanmasi avvalgi 22 nafar boylarning savdo aylanmasidan ko'proq bo'lgan [23.37].

Darhaqiqat, savdo taraqqiyoti ushbu soha vakillari hayotida ham muhim o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Yirik mablag'ga ega bo'lgan savdogarlar qatlami paydo bo'la boshladi. Ular asosan ulgurji savdo bilan shug'ullanish barobarida, o'z sarmoyalarini foiz hisobiga kreditga berish orqali ham yaxshigina daromad topganlar. Rossiya hukumatining savdo haqidagi yangi qonun-qoidalari bunday toifadagi tadbirkor savdogarlar uchun juda qo'l kelganligini ham ta'kidlash joiz. Ushbu jarayon mayda tadbirkorlarga jiddiy zarba berib, ularning kasodga uchrashishiga sabab bo'ldi [23.66-67]. Quydagi raqamlar ham shundan dalolat beradi. Agar Samarqand viloyati bo'yicha 1888-yilda savdo uchun 8687 ta, 1896-yilda 13357 ta hujjat berilgan bo'lsa, 1906-yilga kelib ushbu raqam 11707 taga tushib qoldi. Demak, 1896-yildagiga nisbatan 1906-yilda savdo uchun berilgan hujjatlar soni 1650 ga kamaygan. Biroq 1888-yilgi savdo aylanmasi 9.771.372 rublni tashkil qilgan bo'lsa, 1906-yilda esa bu raqam 63.000.000 mln rublga yetgan [24.9]. Ya'ni oradan o'tgan 20 yilga yaqin vaqt ichidagi Samarqand viloyatida savdo aylanmasi qariyb 6,5 baravarga oshgan. Lekin shunga qaramasdan, 1906-yilga kelib vohadagi savdo aylanmasining salmoqli qismi mayda savdogarlar hissasiga to'g'ri keldi. Masalan, 1906-yilda savdo uchun berilgan 11707 hujjatdan 3615 tasi III darajali savdogarlar uchun, 6628 tasi IV darajali edi [24.9]. Mayda savdo uchun jami 10243 ta hujjat berilgan [24.9].

Samarqand shahri va vohaning boshqa hududlarida choy savdosi anchayin rivojlandi. Turkiston general-gubernatori fon Kaufmanning 1868 yilda choy savdosi bilan shug'ullanuvchi rus savdogarlaridan olinadigan soliqni bekor qilishi bu borada katta ahamiyat kasb etdi [25.153]. Lekin qo'shni davlatlardan keltiriladigan choy mahsulotlaridan olinadigan soliq miqdori ikki barovar oshirildi. 1869-yil oxirlarida Samarqandda 50 ta [26.124], Kattaqo'rg'onda 13 ta [27.105] choy hamda Rossiyadan keltirilgan mahsulotlar bilan savdo qiluvchi do'konlar ochildi. O'sha davrda choy savdosi Turkistonning ichki va tashqi savdosida muhim rol o'ynagan. XIX asrning 80-yillarigacha choy savdosida Buxoro yetakchi o'rinni egallagan. Har yili bu yerga Qobul orqali Hindistonning turli shaharlari, Bombey va Peshovardan 100 ming pud choy keltirilgan. Choy savdosida asosan peshovorlik savdogarlarning hissasi katta bo'lgan [28.368].

Bu davrda mahalliy savdogarlar manufaktura va choy savdosida faol ishtirok etishdi. Lekin ularning tijorati mayda xarakter kasb etgan. Vohadagi ulgurji choy savdosi "Vogau", "Popova", "Bauer", "Kuznetseva", "Gonshina", "Guseva", "Danilova", "Sharovskiy", "Sendel i K" singari yirik firmalar, Filatov, aka-uka Kamenskiy kabi rus hamda Pinxasov, Mullaqandov, Qalantarov va boshqa mahalliy savdogarlar qo'lida edi.

Samarqand shahri qulay geografik joylashuvi, temir yo'llarning mavjudligi tufayli nafaqat vohada, balki butun Turkistonda choy savdosi bo'yicha yetakchi o'rinni egalladi. 1899-yilda Turkiston shaharlarida sotilgan jami 7816119 pud choyni 35,4 foizi Samarqand hissasiga to'g'ri kelgan. Umuman, Samarqand shahri ulgurji choy savdosi bo'yicha Rossiya imperiyasida Tyumen shahridan (3263423 pud) keyingi o'rinda turgan [29.54].

1895-yildan e'tiboran Buxoro amirligi Rossiyaning yagona bojxona hududiga kiritilishi choy tranzitida ham muayyan o'zgarishlarga olib keldi. Xususan, bu tadbir natijasida rus tadbirkorlari ulgurji choy savdosidan kattagina foyda ola boshladilar. Samarqandda choy savdosining taraqqiy etishi o'z nabatida ushbu mahsulot bilan bog'liq ishlab chiqarish tarmoqlarining ham rivojlanishiga olib keldi. Masalan, o'sha davrda Samarqandda turli hajmdagi choy qutilarini ishlab chiqaruvchi artel hamda har xil litografiya muhrlari tayyorlovchi bosmaxona faoliyat boshladi. Bunday korxonalarning yillik daromadi 7200 rublga yetdi [29.54]. K.Palen ma'lumotlariga ko'ra, 1908-yilda Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatgan 16 ta choy qadoqlash fabrikalari bozorga qariyb 9 mln. rubllik mahsulot yetkazib bergan. Mazkur fabrikalarda esa 731 kishi ish bilan band bo'lgan [29.54].

Tovar ishlab chiqarish hajmining kengayishi sababli Samarqand viloyati bozorlarining Rossiya bozorlari bilan integratsiyasi kuchaydi. Natijada voha savdosida yangi tarmoqlar yuzaga kela boshladi. Zarafshon vohasida ishlab chiqarilayotgan qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik mahsulotlarini Rossiyaga eksport qilish hajmi va salmog'i ortib bordi.

Kattaqo'rg'on bozoriga matolar asosan Qo'qon, Buxoro, Qobul va Mashhad shaharlaridan keltirilgan. Oddiy Qo'qon surp matosining 12 arshini 5 rubl, daruya deb ataluvchi yarim ipak gazlamaning 3,5 arshini 4 rubl, shoyining 8 arshini 5-6 rubldan sotilgan. Buxoro shoyisining 18 arshini 15-18 rublga, podshoyi nomli yarim ipak matosining 18 arshini 7-8 rublga, bosma chitning 100 donasi har biri 22 arshini 110-120 rublga keltirilgan, nil bo'yog'ining 1 pudi 56-60 rubl, doka matosining 24 arshini 5-6 rubl, kamxat deb nomlangan ipak matoning 7 arshini 100 rubl narxda sotilgan. Shuningdek, Qobuldan Angliyada ishlab chiqarilgan turli xil matolar ham olib kelingan [30.49].

Shuningdek, mahalliy mulkdorlar bozor munosabatlarining tashkilotchisiga aylanolmagan bo'lsalar-da, ammo vohada savdo va tadbirkorlik rivojiga katta hissa qo'shdilar.

4. Xulosalar. Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Zarafshon vohasida ichki va tashqi savdo-sotiq tarixi arxiv hujjatlari, chop etilgan adabiyotlarda berilgan ma'lumotlarni chuqur tahlil etish asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi. XIX asrning o'rtalaridan boshlab o'z salohiyati jihatidan Zarafshon vohasi hududi, aholisi, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivoji jihatidan amirlik bo'yicha alohida mavqega ega hudud hisoblangan. Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasida, jumladan Zarafshon vohasida mustamlaka tizimida vohada yer egaligi ishlab chiqarish munosabatlari hukmron mavqega ega bo'lishga qaramasdan, mahalliy tadbirkorlik va savdo-sotiq yangicha mustamlaka sharoitiga moslashib, ma'muriy siyosiy ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ikki qismga bo'linishiga sabab bo'ldi. Mustamlakachilik dastlabki yillarda vohada savdo-sotiq sohalari o'z boshidan murakkab tarixiy jarayonlarni kechirdi. Rossiyada ishlab chiqarilgan

manufaktura mahsulotlarining ko'plab voha bozorlariga kirib kelishi ko'pgina sohalarini inqiroz yoqasiga olib keldi. Savdo-sotiq jarayonlari asriy an'analarni davom ettirish bilan bir qatorda mustamlaka tizim zulmi iskanjasida qolib ketdi. Voha savdogarlari qadimdan G'arb va Sharq mamlakatlari bilan savdo-sotiq aloqalarini qizg'in olib borgan. Tarixdan bunga juda ko'p misollar keltirish mumkin. Lekin ushbu davrda savdo aloqalarida bir yoqlamalik xarakteri kasb etdiki, ya'ni Rossiya bilan savdo aloqalar hajmi keskin ravishda kengayib bordi. XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Zarafshon vohasini iqtisodiyotini o'z ta'sirida ushlab turish siyosati yanada kuchaydi. Temir yo'llar qurilishi natijasida rus tovarlari oboroti keskin o'sib bordi. Rossiyadan yigirilgan ip, metall va yarim fabrikat mahsulotlarining keltirilishi mahsulot turi va sifatining oshishiga, ayni paytda voha hunarmandchilik mahsulotlari bozorlarining kasodga uchrashiga olib keldi. Savdo-sotiq, tadbirkorlik, rivojlanishi milliy burjuaziyasining shakllanishi jarayonini ham tezlashtirdi. Biroq milliy burjuaziya o'sib borishi sezilsada u voha iqtisodiyoti va siyosiy hayotida yetakchi rol o'ynay olmadi. Buning asosiy sababi sifatida milliy burjuaziya manfaatlari rus burjuaziyasiga iqtisodiy va moliyaviy qaramligida edi. Ayni paytda, mahalliy tadbirkorlar, boylarning rus burjuaziyasi bilan hamkorligi kuchayib borishi kuzatildi. Xususiy korxona egalari bo'lgan mulkdorlar qatlamlari shakllanishi ko'paydi. Shuni nazardan qochirmaslik kerakki ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar mustamlaka rejim manfaati uchun xizmat qilgan. Butun Turkiston o'lkasi kabi, Zarafshon vohasi ham imperiyaga xom ashyo yetkazuvchi bazaga aylantirildi. Mustamlakaga xos boshqaruv tizimining turli iqtisodiy usullarini joriy qildi. Bu jarayonlar voha aholisining iqtisodiy hayotida yangi o'zgarishlarni amalga oshirishda halaqit qildi. Vohaning tashqi savdosidagi o'zgarishlarning ahamiyati katta bo'ldi. Xorijiy mahsulotlar kirib kelishi muayyan darajada oshdi. Chetga mahsulot chiqarishdan rus burjuaziyasi ko'proq manfaat ko'rdi. Ular mahalliy arzon mahsulotlarning asosiy xaridoriga aylandi.

Xullas, o'rganilayotgan davrda savdo va sudxo'rlik, yer egaligi, chorvachilik tarmoqlari orqasidan yetishib chiqqan mahalliy mulkdorlar Zarafshon vohasining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida katta mavqega ega edilar. Lekin bunday toifadagi mulkdorlarning qanchalik ko'paymasin, vohaning iqtisodiy va siyosiy hayotida yetakchi mavqega ega bo'la olmadilar. Rossiya imperiyasining manfaatlari mahalliy mulkdorlarning birlashishiga imkon bermas edi. Mahalliy mulkdorlarning reaksiya mohiyati uning o'z yurtdoshlarini ezish orqali ko'proq boylik orttirishga intilishida yaqqol namoyon bo'ldi. Shuningdek, mahalliy mulkdorlar bozor munosabatlarining tashkilotchisiga aylanolmagan bo'lsalarda, ammo vohada savdo va tadbirkorlik rivojiga katta hissa qo'shdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бутенов К.Ф. Заводское дело в Бухарии //Горный журнал. Ч. V, кн IX.-СПб., 1842; Небольсин П.И. Очерки торговли России со странами Средней Азии Хивой, Бухарой и Коканом. (со стороны Оренбургской линии) –СПб., 1856// <http://elibrary.ru/nodes/23765-nebolsin-p-i-ocherki-torgovli-rossii-s-stranami-sredney-azii-hivoy-buharoy-i-kokanom-so-storony-orenburgskoy-linii-spb-1856#mode/inspect/page/1/zoom/4>;

Бернс А. Путешествие в Бухару. -М., 1849; Хаников Н.В. Описание Бухарского ханства. –СПб., 1843.

2. Пашино П. Ч. Туркестанский край в 1866 году. Путевые Заметки. –СПб., 1868//<https://dlib.rsl.ru/viewer/01003581840#?page=1>; Костенко Л.Ф. Путешествие в Бухару русской миссии в 1870 г. -СПб., 1871// <http://elib.shpl.ru/ru/nodes/23780>;

Петровский Н. Ф. Моя поездка в Бухару. // Вестник Европы. 1873,№3//http://www.vostlit.info/Texts/Dokumenty/M.Asien/XIX/18601880/Petrovskij_N_F/poezdka_bucharu_1872.htm;

Соболев Л.Н. Географические и статические сведения о Зеравшанском округе. –СПб., 1874; 1875.// <https://www.prilib.ru/item/329436>; Радлов В.В. Средняя Зеравшанская долина // Зап. Рус. геогр. о-ва. по отд. этнографии. –Т. VI.-СПб., 1880 <http://greylib.align.ru/1331/v-v-radlov-samarkand-pamyatniki-drevnosti-iz-statisticsrednyaya-zerafshanskaya-dolina.html>; Вирский М.М. Выставка сельского хозяйства и промышленность в Самарканде в 1884. –Самарканд, 1895 <http://elib.shpl.ru/ru/indexes/values/67437>; Губаревич-Радобыльский А. Экономический очерк Бухары и Туниса, Опыт сравнительного исследования двух систем протектората. – СПб., 1905 <http://www.cawater-info.net/library/rus/hist/gubarevich-radobylsky/index.htm>; Гейер И.И. Туркестан. – Ташкент,1909; Логофет.Д. Бухарский ханства под русским протекторатом. – СПб.,1911 <http://elib.shpl.ru/ru/nodes/16648-logofet-d-n-buharskoe-hanstvo-pod-russkim-protektoratom-spb-1911>; Конопка С.Р. Туркестанский край. –Ташкент, 1912.https://viewer.rusneb.ru/ru/000199_000009_003791837?page=1&rotate=0&theme=white; Масальский В.И. Туркестанский край. // Россия. Т. XIX .-СПб., 1913.<http://elib.shpl.ru/ru/nodes/170-t-19-turkestanskiy-kray1913#mode/inspect/page/1/zoom/4>

A. I. Chicherov. A Contribution to the Description of the Socioeconomic Structure of India on the Eve of the Colonial Conquest: (Handicraft Production from the 17th to the Early 19th Century)

Michael Aldous (2023) From traders to planters: The evolving role and importance of trading companies in the 19th century Anglo-Indian Indigo trade, Business History, 65:5, 803-820, DOI: 10.1080/00076791.2019.1623787.

Ranin Kazemi (2022) The modern silk road: trade in Persian opium across Central Asia in the long nineteenth century, British Journal of Middle Eastern Studies, DOI: 10.1080/13530194.2022.2113502.

Sophie Ibbotson (2018) Kwangmin Kim. Borderland Capitalism: Turkestan Produce, Qing Silver, and the Birth of an Eastern Market, Asian Affairs, 49:1, 143-144, DOI: 10.1080/03068374.2018.1416020.

3. Ремез И.А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны: Опыт историка стат. обзор внешней торговли ханства вне сферы томоженных объединений его с российской империй. –Ташкент, 1922//<https://elib.rgo.ru/safe-view/123456789/60488/1/MTgyMDA4MDdfUmVtZXosIEkuIEEuIFZuZXNobnlheWEgdG9yZ292bHlhIEJlY1aGFyeSBkbyBtaXJvdi5wZGY=>; Спасский Г. Новейшие описание великой Бухары. // Азиатский вестник.-Москва, 1925, -№5, 1926, -№6; Сухарева О.А. К истории городов Бухарского ханства (историко-этнографического очерки). – Ташкент: изд.АН.УзССР, 1958;Шу муаллиф. Позднефеодальный город Бухара конца XIX начале XX века. -Ташкент, 1962 <https://www.twirpx.com/file/2254762/>; Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии. – Ташкент, 1959 <https://search.rsl.ru/ru/record/01005973423>; Бунаков Е.В. Тенденции развития

капиталистических отношений в Средней Азии накануне присоединения её к России. // Проблемы Востоковедения. – М.: Изд АН СССР, 1960, -№6.; Рассудова Р.Я. Занятия населения. //Этнографические очерки Узбекского сельского населения. – М., 1969.

4. ЎзР МДА. И-1 фонд; ЎзР МДА. И-5 фонд.

5. Обзор Самаркандской области. – Самарканд, 1912.
<http://elib.shpl.ru/ru/nodes/46521>

6. Справочник Самаркандской области на 1901, вып., III. -Самарканд, 1901.

7. Magnus Marsden (2018) Beyond Bukhara: Trade, identity and interregional exchange across Asia, History and Anthropology, 29:sup1, S84-S100, DOI: 10.1080/02757206.2018.1496915.

7. ЎзР МДА. И-1 фонд, 16-рўйхат, 2264- иш, 7-варақ.

8. ЎзР МДА. И-1 фонд, 20-рўйхат, 513- иш, 7-варақ.

9. ЎзР МДА. И-1 фонд, 11-рўйхат, 16- иш, 6-варақ.

10. Ханыков Н. Описание Бухарского ханства. -СПб., 1843, -С. 109

11. ЎзР МДА. 5- фонд, 1- рўйхат, 12- иш, 124-варақ.

12. Самарканд. // Военный сборник. № 12. –СПб., 1870. –С.390.

13. ЎзР МДА. 5-фонд, 1-рўйхат, 12-иш, 107, 114, 115-варақлар

14. Голос. 1876, -№179; Туркестанский сборник. Т.151. –С 111

15. Туркестанские ведомости. 1871, -№5.

16. Гребенкин А. Таджики. // Русский Туркестан, вып. I, под ред. Н.Маева. -М., 1872, -С. 26. <https://rus-turk.livejournal.com/415576.html>

17. Мансырев С.П. Базарная торговля в Самаркандском уезде. //Справочная книжка Самаркандской области на 1898 год, вып. VI. – Самарканд, 1899. -С. 125,126,127,128.http://app.cseas.kyotou.ac.jp/turkestan/volume/v501_594/v528.html

18. Обзор Самаркандской области за 1889 год. – Самарканд, 1891. -С. 13; Обзор Самаркандской области за 1898 год. –Самарканд, 1899. -С. 15

19. Обзор Самаркандской области за 1897.-Самарканд, 1898. -С. 30
<http://elib.shpl.ru/ru/nodes/46168-za-1898-god-1900>

20. Бржезицкий И.А. Самаркандский уезд.-Ташкент, 1909. -С.138,140

21. ЎзР МДА. 1-фонд, 16-рўйхат, 94-иш, 38-варақ.

22. ЎзР МДА. 1-фонд, 16-рўйхат, 815-иш, 12-варақ.

23. Арандаренко Г.А. Досуги в Туркестане, 1874-1882. –СПб., 1889. -С. 37,38,51, 66,67
https://viewer.rusneb.ru/ru/000199_000009_003623349?page=1&rotate=0&theme=white

24. Обзор Самаркандской области за 1906 год. – Самарканд, 1907. Приложение №9 <http://elib.shpl.ru/ru/nodes/46176-za-1906-god-1907>

25. Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX начала XX века из социально-экономический и политической истории средней части Зеравшанской долины. -Самарканд, 1970. -С 153.

26. ЎзР МДА. 5-фонд, 1-рўйхат, 12-иш, 124-варақ.

27. ЎзР МДА. 5-фонд, 1-рўйхат, 11-иш, 105-варақ.

28. Пален К. Материалы к характеристике народного хозяйства в Туркестане. Ч.I, отдел I. -СПб., 1911. -С.368.

29.Справочник Самаркандской области на 1901, вып., III. -Самарканд, 1901. -С. 54

30. Радлов В. Средняя Зеравшанская долина. -СПб., 1880. -С. 49.